


Qoraqalpog'iston Respublikasi

Statistika boshqarmasi



2023-YIL YANVAR-DEKABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR







2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 11945,2 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 73,2 % i yoki 8740,7 mlrd. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 26,8 % yoki 3204,5 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022-yildagi ulushiga nisbatan 9,6 % punktga kamayib, 19,9 % ni yoki 2364,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 9580,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 80,1 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2022-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 9,6 % punktga ko‘paydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 4266,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 35,7 % ini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,3 % i yoki 1829,2 mlrd. so'mi o'zlashtirildi. Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1828,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 37,5 % li punktga kamayib, 15,3 % ni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11945,2	107,4	100,0
tumanlar:			
Amudaryo	421,8	71,8	3,5
Beruniy	372,4	76,1	3,1
Bo'zatov	95,7	74,3	0,8
Qorao'zak	2805,9	137,7	23,5
Kegeyli	116,4	68,5	1,0
Qo'ng'iro't	2205,6	169,8	18,5
Qonliko'l	184,2	100,6	1,5
Mo'ynoq	1225,2	113,3	10,3
Nukus	270,0	111,6	2,3
Taxiatosh	171,0	44,7	1,4
Taxtako'pir	108,0	128,1	0,9
To'rtko'l	559,0	93,6	4,7
Xo'jayli	261,9	77,7	2,2
Chimboy	247,4	88,7	2,1
Shumanay	121,8	89,6	1,0
Ellikqal'a	441,4	93,7	3,7
Nukus sh.	2337,5	89,3	19,5

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar 2022-yilga nisbatan 70,3 % ga ko'paydi. Bunday yuqori o'sishni 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) bo'yicha dastur, 2020-2030-yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish va boshqa investitsiya loyihalari bilan izohlash mumkin.

Qurilish-montaj ishlari




Mashina, uskuna, inventar

Boshqa xarajatlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariga 7154,9 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 59,9 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventarlar bo'yicha 3902,7 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 32,7 %) va boshqa xarajatlarga 887,6 mlrd. so'm (7,4 %) o'zlashtirildi.



Yangi qurilish



Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya



Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qo'ng'iro't tumanida kuzatildi – 81,5 % yoki 1818,7 mlrd. so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Taxtakopir tumanida kuzatilib, 29,3 % ni yoki 31,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Mo'ynoq tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 52,2 % yoki 639,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 6519,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 54,6 % ini tashkil etdi.


Kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash uchun yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2022-2027- yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Qorao'zak tumanida kuzatilib, u 89,0 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 4208,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35,2 % ini tashkil etdi. Qolgan 10,2 %, ya'ni 1217,2 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlarining ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha yangi qurilish ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSİYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 3430,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,7 % i o'zlashtirilgan.

Tog'-kon sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


**TOG'-KON SANOATI
BILAN BOG'LIQ BOSHQA
FAOLIYAT**
41,4 mlrd. so'm
ulushi 0,3 %

**METALL RUDALARINI
QAZIB OLISH**
2268,2 mlrd. so'm
ulushi 19,0 %

**XOM NEFT VA TABIIY GAZ
QAZIB OLISH**
1121,2 mlrd. so'm
ulushi 9,4 %

Ishlab chiqarish sanoatida jami 2118,7 mlrd.so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 17,7 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 8,9 % i yoki 1062,1 mlrd. so'mi kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so'm

	Jami	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7317,3	1829,2	1221,4	4266,7
tumanlar:				
Amudaryo	200,3	-	104,9	95,4
Beruniy	134,2	-	-	134,2
Bo'zatov	10,7	-	-	10,7
Qorao'zak	2667,9	393,6	-	2274,3
Kegeyli	28,8	22,9	-	5,9
Qo'ng'iro't	1822,3	1109,8	647,5	65,0
Qonliko'l	24,0	7,5	-	16,5
Mo'ynoq	767,9	8,2	-	759,7
Nukus	126,2	-	100,2	26,0
Taxiatosh	23,7	0,9	2,9	19,9
Taxtako'pir	51,0	-	-	51,0
To'rtko'l	242,3	9,5	100,1	132,7
Xo'jayli	46,1	5,9	2,9	37,3
Chimboy	57,0	13,0	-	44,0
Shumanay	47,3	13,8	-	33,5
Ellikqala	186,0	-	141,6	44,4
Nukus sh.	881,6	244,1	121,3	516,2

2023-yil yanvar-dekabr oylarida 7317,3 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,3 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 4611,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 2705,8 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 6095,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 1221,4 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 170,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi

